

““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan
jismoniy shaxslarga avtomobil sotib olishga
kredit berish tartibi to‘g‘risida nizomga”ga
3-ilova

Kreditning to‘liq qiymati:

_____ (_____) foiz

KREDIT SHARTNOMASI

20__ yil “___” _____ N _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki “_____” bank xizmatlari ofisi (bank xizmatlari markazi) (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi (boshligi) _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tarafdan, jismoniy shaxs _____ (_____.20__da tug‘ilgan, pasport yoki ID-karta _____, JSHSHIR _____), (keyingi o‘rinlarda – Qarzdor/mijoz), ikkinchi tarafdan, va jismoniy shaxs _____ (_____.20__da tug‘ilgan, pasport yoki ID-karta _____, JSHSHIR _____), (keyingi o‘rinlarda – Birgalikda qarzdor), uchinchi tarafdan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldaggi 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-ton bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi muqaddima*)

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank avtomobilni sotib olishga kredit berish majburiyatini, Qarzdor/mijoz esa olingan kreditni belgilangan muddatda qaytarish va kreditdan foydalanganlik uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldaggi 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-ton bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

2. Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida _____ (_____) so‘m kredit beradi. Ushbu kreditning _____ (_____) so‘mi avtomobili sotib olish, qolgan

(avtomobil markasi)

_____ (_____) so‘mi garovni (sug‘urtani) rasmiylashtirish uchun ajratiladi. (*Bank kuzatuv kengashining 2023 yil 20 fevraldaggi 24-son qarori bilan tasdiqlangan va 2023 yil 15 martda 629-ton bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

3. Bank Qarzdor/mijoz arizasi asosida *ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri (avtosalon)* hisobvarag‘iga kreditga sotib olinayotgan avtomobil uchun to‘lovni naqd pulsiz shaklda amalga oshiradi.

4. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan kredit hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli kredit hisobvarag‘i ochadi.

2-§. Shartnoma qiymati

5. Kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% **miqdorida belgilandi**. Kredit mablag‘i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmagan takdirda, muddati o‘tkazilgan qarzdorlik uchun kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% miqdorida o‘rnataladi.

6. Kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash tomonlarning o‘zaro kelishuviga muvofiq _____ usulida amalga oshiriladi.

(*differensial yoki annuitet*)

7. Bank kreditdan foydalanganlik uchun foizni Qarzdorga/mijozga haqiqatda berilgan kredit bo‘yicha asosiy qarzning qoldig‘iga nisbatan ushbu Shartnomada belgilangan nominal stavka bo‘yicha hisoblaydi. Bunda, kreditdan foydalanganlik uchun foiz kredit mablag‘i Qarzdor/mijoz tomonidan ko‘rsatilgan hisobvaraqla o‘tkazilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Kredit bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va hisoblangan foizni to‘lash ushbu Shartnomaga

ilova qilingan kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Kredit to‘lovi dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi ish kunida dam olish kunida hisoblangan foizni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kredit bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o‘tgan kun uchun to‘lov muddati o‘tgan foiz qiymatidan ____%, lekin muddatida to‘lanmagan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda Bankka penya to‘laydi (agar Bosh bank kredit komissiyasining avtokredit shartlari belgilangan qarorida muddati o‘tgan foiz qarzdorligiga penya o‘rnatalgan bo‘lsa). Penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foiz qarzdorligini to‘lashdan ozod qilmaydi.

Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so‘ng kredit bo‘yicha moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarganda, shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so‘ndirilishi munosabati bilan kredit bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to‘lovlaring miqdori o‘zgarganda Bank kreditni qaytarish jadvalini, qo‘sishma kelishuvga asosan, yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo‘lgan kreditni qaytarish jadvali o‘z kuchini yo‘qotadi.

8. Kredit bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lov qiymati Qarzdorning/mijozning Bank oldidagi majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo‘Imaganida, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, Qarzdorning/mijozning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- a) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;
- c) jarima va penya;
- d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

(Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagи 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatları

9. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) Qarzdorning/mijozning to‘lovga layoqatlilik qobiliyatini yanada to‘laroq tahlil qilish uchun undan qo‘sishma hujjatlar talab qilish;
- b) kreditlash davrida Kredit byurosidan Qarzdor/mijoz va birgalikda qarzdor haqida kredit hisoboti olish;
- c) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish;
- d) Qarzdor/mijoz talabnomada belgilangan muddatda ko‘rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da‘vo bilan murojaat etish;
- e) kredit va unga hisoblangan foiz belgilangan muddatda so‘ndirilmaganda, qarzdorlikni birgalikda qarzdordan undirish;
- f) Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik paydo bo‘lsa, Qarzdorning/mijozning (Birgalikda qarzdorning) O‘zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘ini so‘zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish (bunda Bank tomonidan mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorga/mijozga (Birgalikda qarzdorga) uning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko‘rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi); (Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagи 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)
- g) Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik paydo bo‘lsa, Qarzdorning/mijozning (Birgalikda qarzdorning) O‘zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘ini so‘zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish (bunda Bank tomonidan mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorga/mijozga (Birgalikda qarzdorga) uning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko‘rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi); (Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagи 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)
- h) Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korruption harakatlar bevosita

yoki bilvosita sodir etilganligi aniplansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish; (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band*)

i) quyidagi har qanday davrda sodir bo'ladigan holatlarning har birida kreditni muddatidan oldin sud tartibida to'liq undirish:

Qarzdor/mijoz mazkur Shartnoma yuzasidan o'z majburiyatlarini kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz, hisoblangan foiz, muddati o'tgan kreditga oshirilgan stavka bo'yicha hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida;

Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini (qarzdorlikni to'lash majburiyatidan tashqari), ularni bajarmayotganligi haqida bildirishnomasi (talabnoma) yuborilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida lozim darajada bajarmasa.

(*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band*)

10. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) avtomobil qiymati *ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri* (avtosalon) hisobvarag'iiga o'z vaqtida o'tkazib berilishini Bankdan talab qilish;

b) ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag'i olingunga yoxud kredit hisobidan avtomobil uchun to'lov amalga oshirilgunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish;

d) kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtida muddatidan oldin to'liq to'lagandan hamda shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq bajargandan so'ng Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)

11. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) kreditni Qarzdorga/mijozga 20__ yil "___" _____ dan 20__ yil "___" _____ gacha bo'lgan muddatga berish;

b) Qarzdorga/mijozga o'z vaqtida kredit hisobvarag'i ochish;

d) Qarzdor/mijoz tomonidan kredit ajratilishiga oid shartlar [o'z mablag'i bilan qatnashish, kredit ta'minoti sifatida kreditga sotib olinayotgan avtomobilni (yoki boshqa mulknii) garovga qo'yish va garov shartnomasini notarial tasdiqlatish (agar avtomobil birlamchi bozordan sotib olingan bo'lsa, Bank tomonidan ajratiladigan kredit bo'yicha ushbu avtomobilning o'zi garovga olinganda garov shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanmaydi), garov qo'yilgan avtomobilni (yoki avtomobil o'rniga garovga qo'yilgan boshqa mulknii) kreditdan foydalanishning butun davriga yo'l-transport hodisasi holati va boshqa noxush holatlardan sug'urtalash] bajarilgandan so'ng, avtomobil qiymatini to'liq miqdorda *ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri* (avtosalon) hisobvarag'iiga o'tkazib berish;

e) Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur kredit bo'yicha mablag' berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga kredit berish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;

f) Qarzdorning/mijozning talabi bo'yicha kredit hisobvarag'ining holatiga oid ko'chirmani taqdim qilish;

g) kreditni muddatidan oldin undirish omili va sabablari haqida Qarzdorni/ mijozni xabardor etish;

h) kredit bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog'lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, qarzdorga/mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kreditni qaytarish jadvalini ilova qilgan holda xabar berish;

i) Qarzdorni/mijozni ushbu Shartnama bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyati bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, qarzdordan/mijozdan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash;

j) Qarzdordan/mijozdan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish hamda kredit qiymatini qayta hisoblash;

k) Qarzdorni/mijozni quyidagi omillarni hisobga olgan holda o'z moliyaviy ahvolini tahlil qilishi zarurligi to'g'risida ogohlantirish:

Qarzdorning/mijozning qarz yuki joriy moliyaviy ahvoliga mos kelishi;

ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishi uchun taxminan qaysi muddatlarda va qancha miqdorda pul mablag'i kelib tushishi kutilayotganligi (ish haqi to'lanishi, boshqa daromad olishi davriyiligi);

ushbu shartnama bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo'lган yengib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyatlar va boshqa holatlar yuz berishi ehtimoli (doimiy ishini yo'qotish, o'ziga bog'liq bo'lмаган sababga ko'ra ish haqi va boshqa turdag'i daromadni kechikib olishi, ishga joylashishi, sog'lig'ining yomonlashganligi natijasida daromadining tushib ketishi);

l) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnama bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini qarzdorga/mijozga yuborish (ushbu talabnomada tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash usullari, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi); (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyulda 80-sон qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-сон bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)

m) Qarzdor/mijoz tomonidan kredit bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langanidan so'ng, mazkur qarzdorlik bo'yicha amalga oshirilgan oxirgi to'lov sanasining keyingi uch ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida kredit bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganligi va ushbu Shartnama bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot joylashtirish.

12. Qarzdor/mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) kredit ajratilgunga qadar quyidagi shartlarni bajarish: o'z mablag'i bilan qatnashish, kredit ta'minoti sifatida kreditga sotib olinayotgan avtomobilni (yoki boshqa mulkni) garovga qo'yish va garov shartnomasini notarial tasdiqlatish (agar avtomobil birlamchi bozordan sotib olingan bo'lsa, Bank tomonidan ajratiladigan avtokredit bo'yicha ushbu avtomobilning o'zi garovga olinganda garov shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanmaydi), garov qo'yilgan avtomobilni (yoki avtomobil o'rniga garovga qo'yilgan boshqa mulkni) kreditdan foydalanishning butun davriga yo'l-transport hodisasi holati va boshqa noxush holatlardan sug'urtalash;

b) mazkur Shartnama shartlari va "Kreditni qaytarish va foiz to'lovi jadvali"ga muvofiq kreditni belgilangan muddatlarda to'lash, Bank bilan o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish; (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyulda 80-sон qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-сон bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)

d) Garov reestriga yozuv kiritishga o'zining yozma roziligi taqdim etish;

e) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnama bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган boshqa holatlarga oid o'zgarishlar to'g'risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish;

f) ushbu Shartnama bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Bankka o'zining O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnama bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lган pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini berish. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyulda 80-sон qarori bilan*

tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)

4-§. Tomonlarning javobgarligi

13. Qarzdor/mijoz kredit hisobiga sotib olingan avtomobilni, ushu Shartnoma amal qilayotgan davr ichida, Bankning yozma ruxsatini olmasdan turib o'z tasarrufidan chiqargan (egalik huquqini boshqa shaxsga o'tkazgan) bo'lsa, u Bankka kredit qiymatidan 25% miqdorida jarima to'laydi.

14. Tomonlar ushu Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

5-§. Nizolarni hal qilish

15. Bank va Qarzdor/mijoz, taraflarning o'zaro roziligidagi ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llashga, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali hal qilishga haqli hisoblanadi.

16. Taraflar ushu Shartnoma bilan bog'liq bo'lган, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi, bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagи 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

6-§. Shartnomaning boshqa shartlari

17. Ushbu Shartnomaning ilovasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

18. Bank qarzdor/mijoz uchun ushu Shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to'lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

19. Qarzdor/mijoz vafot etganda uning huquq va majburiyatları O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

20. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushu Shartnoma majburiyatları to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

21. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

22. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar, ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo'ladi.

23. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

7-§. Taraflarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:

Manzili: _____

Tel.: _____

STIR: _____

Bank kodi: _____

Bank hisobvarag'i: _____

Boshqaruvchi (boshliq): _____

Muhr

Birgalikda qarzdor:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

Qarzdor/mijoz:

Manzili: _____

Telefon: _____

JSHSHIR: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

Imzo:

Imzo: